



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Abdivasiyeva Gulshoda Yo'ldoshevna

Samarqand davlat universiteti O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

XALQ OG'ZAKI IJODI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI TARBIYALASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi asosida tarbiyalash xususida so'z boradi. Boshlang'ich sinfda o'qish darsliklaridagi xalq og'zaki ijodi namunalari mazmun – mohiyatini o'rganish. Boshlang'ich sinf darslik kitoblarida keltirilgan ertak, maqol, topishmoq, masal kabi janrlarni milliy qadriyatlarimiz, urf – odatlarimiz bilan uyg'unlashtirgan holda yosh avlodga o'rgatish. Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida o'quvchilarni ma'naviy – axloqiy tabiyalash va ularda insoniylik, bag'rikenglik, ochiqko'ngillilik kabi xislatlarni tarkib toptirish.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, janr, ertak, maqol, topishmoq, masal, tez aytish, tarbiya.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm – fan, ta'lim va tabiyadir” [1]. Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim – tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda yosh avlodni bilimli qilib tarbiyalashda «O'zbek xalq og'zaki ijodi»ning o'rnini beqiyosdir. Chunki bolalar ertak, topishmoq va maqollarni berilib eshitishni va o'qishni xush ko'rishadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda boshlang'ich sinflar uchun chiqarilayotgan darsliklarida xalq og'zaki ijodini o'rganish uchun salmoqli o'rin ajratilgan. Unga kiritilgan ertaklar, bevosita, yosh avlodni ma'rifatli va ma'naviyatli, har tomonlama kamol toptirishda muhim ahamiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi o'zining shonli tarixiga ega. Qadim zamonlardan

beri rivojlanib, sayqallanib kelinayotgan janr hisoblanadi. Xalq og‘zaki ijodi bu so‘z san‘atidir, jumladan xalq og‘zaki ijodi qo‘shiq,ertak, doston, maqol, topishmoq, masal, matal, afsona, latifa, lof, askiya, rivoyat,hikmat kabi janrlarni o‘z ichiga oladi. Xalq og‘zaki ijodi o‘zining tematik rang- barangligi, yuksak optimistik g‘oyalar bilan yo‘g‘rilganligi, xalq turmushi, urinishi, mehnati yuksak ideallarga maskanligi, xullas xalq hayotining barcha tamonlar bilan uzviy bog‘liqligi bilan ham g‘oyatda e‘tiborlidir.

Xalq og‘zaki ijodining tarkibiy qismi sifatida “Bolalar folklori” atamasi ham mavjud. Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Zero, insoniyat ilk ibtidoiy jamoa tuzumi davridan boshlaboq alla, qo‘shiqlar, afsona, ertak va dostonlarda o‘zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu, kurashlarini ifodalagan [2].

Bolalar folklori ko‘pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi (alla), ba'zi hollarda bolalar o‘z o‘yinchoqlari asosida o‘zlari ham alla, qo‘shiq va ovunmachoqlar to‘qiydilar. Ularning hammasi bir bo‘lib faqat yaxshi tarbiyani targ‘ib qiladi. Xalq og‘zaki ijodining eng rivojlangan janrlaridan biri alladir. Alla kichkintoy beshikda-tili chiqmasidan ancha avval bola hayotida paydo bo‘ladi, boshqacha aytganda ona suti bilan kiradi- bu beshik qo‘shig‘i. Allalar poetik jihatdan go‘zal, onalarning ichki tuyg‘ularining bayoni sifatida ham xalq og‘zaki ijodining bo‘lak turlaridan ajralib turadi. Ularni bolaning onasi yoki tarbiyachisi aytadi (ona, enaga, keksa onalar, ba'zan otalar tomonidan ham aytiladi). Xalq og‘zaki ijodida maqollarning o‘ziga xos o‘rni bor. U xalqning, bir necha avlodlarining aql-u farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Bola ta‘lim – tarbiyasida maqollarning o‘rni katta. Maqollar ona-vatanni sevishga, uning har bir qarich eri uchun kurashga («Yurt qo‘risang o‘zarsan, qo‘rimasang to‘zarsan»), kasb-hunar egasi bo‘lishga («Yigit kishiga qirq hunar ham oz»), ahil bo‘lib mehnat qilishga («Ko‘pchilik qo‘lda unum ko‘p»), to‘g‘ri so‘z va halol kishilar bo‘lib kamol topishga («Egri to‘zadi, to‘g‘ri o‘zadi»), yaxshi odob va oliyanob xulqli bo‘lishga («Odob bozorda sotilmas», «Yalqovlikningoxiri-xo‘rlik»)chaqiradi.

Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining bolalarni o‘ylashga, topqirlikka o‘rgatuvchi qadimiy janrlardan biridir. Har bir topishmoq zamirida «Kim?», «Nima?» so‘roqlariga yashirin javob yotadi. Har bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf-odati, o‘ziga xos rasm rusumlari bilan bog‘liq holda bo‘lib, bolalar o‘rtasida keng tarqalgan.

Masalan:

Tunda ko‘rib, cho‘g‘ deysan,

Tongda turib, yo‘q deysan. (Yulduz)

Qo‘shaloq tovoq,

Ichi to‘la yog‘. (Yong‘oq)

Tez aytishlar og‘zaki nutq mashqi bo‘lib, kichik yoshdagi bolalar ma‘lum tovushlarni to‘g‘ri va ohangdor talaffuz qilish ko‘nikmalarini orttiradi. Bu janrga mansub asarlar bolalarni biyron so‘zlashga o‘rgatish bilan birga, ularga estetik zavq beradi, fikrlash qobiliyatini o‘stiradi, xotiralarni mustahkamlaydi.



Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang barang janrlardan biri ertakdir. Xalq tomonidan yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning o'ziga xos hayoti chetlab o'tilmagan. Hatto turli yoshdagi bolalar uchun juda ko'p maxsus ertaklar yaratilgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlar bilan chambarchas bog'lanishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidir.

Ertaklar insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug'orilgan bo'lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. Xalq ertaklarida uni yaratuvchilarning dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy muhim masalalari odilona hal etiladi. Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun har qanday kitobxonga tez yetib boradi. Ular orqali ham insonning ijtimoiy axloq normalari shakllanadi. Bu hol ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertakda aks etgan. O'tmishda yaratilgan ertaklarda xalqchilik kurashi o'zining haqqoniy badiiy ifodasini topgandir. Xalqning kelajakka bo'lgan komil ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g'oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlangan.

Xalq ertaklari o'z xususiyatlariga ko'ra bir necha turga bo'linadi: hayotiy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli - afsonaviy ertaklar, ijtimoiy - maishiyertaklar [3].

Xalq og'zaki ijodi namunalari asosida tashkil qilingan o'yin o'quvchilar o'zlashtira oladigan faoliyat hisoblanib, bu faoliyat jarayonida ular o'qishga, mehnatga badiiy ijodga qiziqadilar, hayotiy muammolarni tezda ilg'ab oladilar. Boshlang'ich sinf darslik kitoblarida xalq og'zaki ijod namunalari alohida bob sifatida keltirilib o'tilgan. Jumladan, birgina 3-sinf o'qish kitobi misolida qaraydigan bo'lsak, xalq og'zaki ijodi namunalari alohida bob holida keltirilib, unda o'yin qo'shiqlari (sanamalar, chillak, chittigul, arra - marra), maqollar, topishmoqlar, rivoyat va o'zbek hamda qirg'iz xalq ertaklari o'rin olgan.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi asosida tarbiyalash, milliy urf - odat, an'ana, qadriyat va milliy - ma'naviy meroslarimizni o'quvchilarga xalq og'zaki ijodidagi janrlar yordamida yetkazib berishimiz bizning bosh vazifamizdir. Yetuk salohiyatli, erkin fikrlay oladigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy qarashga ega yosh avodni tarbiyalash jamiyat oldidagi burchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" B 14 "O'zbekiston" Toshkent 2016.
2. Mamasoli Jumaboyev. "Bolalar adabiyoti va folklor" darslik "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti". -Toshkent, 2006
3. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva Sh. 3-sinf "O'qish kitobi" darsligi "O'qituvchi", -Toshkent, 2018. -B. 128-139.
4. Fayziyev M.A. Axborot texnologiyalarini o'rganish jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish // Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. ISSN:



- 2181-1776. Vol. 1 No. 02 (2021). 113-123 b.
<https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/42>
5. Fayziyev M.A. Kvalimetrik yondashuv asosida iqtisodiy fanlarni o‘qitish // **"Fan, ta'lim va amaliyot integrasiyasi"** ilmiy-metodik jurnali (ISSN: 2181-1776) Vol. 3 No. 5 (2022). May, 2022. 300-309 b.
<https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/540/482>